

USMON AZIM IJODIDA AYRIM DINIY SEMALAR

Sharipova Raxima¹¹ NavDU 1-kurs magistranti

Toshmamatova Farangiz Ulug`bek qizi

Ilmiy rahbar. NavDu, f.f.f.d (PhD)

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:26.02.2025

Revised: 27.02.2025

Accepted:28.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Teonim, ageonim,
nekronim, Xudovand,
Rahmon, Karim, Xoliq.

Ushbu maqolada ijodining jozibador va shiddatkorligi, ajabiyotlarga yog`rilgan g`amgin va tantanavor ohanglari bilan ajralib turuvchi, bugungi o`zbek she`riyatining otaxon shoiri bo`lgan Usmon Azim ijodida qo`llangan diniy semalar va ularning mazmun mohiyatini tadqiq etdik.

KIRISH. Millatimizning ma`naviyatini yuksaltirish, ongi va tafakkurini o`z psixalogik, falsafiy va ijtimoiy-estetik qarashlari orqali mukammal tarzda ruhlantirish borasida o`z davrini yarata olgan shoir Usmon Azim o`zbek adabiyotiga XX asrning 70- yillarida o`zgacha ohang kasb etuvchi asarlari, go`zal ijodiy uslublari bilan kirib keldi. Usmon Azimning badiiy dahosi na zamon va na makon chegaralarini bilmaydi. Uning lirik va epik she`rlari bir ummon. Bu ummonda go`yoki “ Men – baliqday jonvorman- suzib, Topayapman orom o`zimga”<sup>62</sup> deganidek shoir falsafiy donishmandlikka yog`rilgan she`rlari bilan she`riyat ummonida suzmoqda. Shuningdek kitobxonlar qalbida to`lib- toshib oqmoqda.

Usmon Azim ijodini o`rganar ekanmiz, uning she`rlarida ko`pgina o`rinlarda turli ko`rinish va sifatlarda ishlatilgan diniy qarashlar bilan bog`liq bo`lgan semalar, muqaddas joy nomlari va qadamjolar, shuningdek tarixiy shaxslar, shayxlarning ismlari

⁶² Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 422-бет

qo'llanganligini ko'ramiz. Biz bu semalarni quyidagicha gurihlarga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'rdik.

Usmon Azim ijodida Teonimlarni (Alloh va uning sifatlarini bildiruvchi so'zlar) turli o'rinlarda birgina "Olloh" so'zining turli sinonim variantlaridan: "Xudo", "Xudoy", "Xudoyim", "Xudovand", "Tangri", "Haq", "Rab", "Qodir egam", "Rahmon", "Karim", "Xoliq", "Jabbor" kabi isimlaridan ko'pgina o'rinlarda foydalanganini guvohi bo'ldik.

Kuzga chiqdim o'zni yoqmoqqa –
Yon gunohning barcha-barchasi!
Dil, tavba qil!
Ana, oqmoqda
Allohimning tiniq parchasi...⁶³

Ijodkorning "Kuzgi bog'" she'ridan olingan ushbu parchada "Alloh" so'zi teonim bo'lib kelgan. Allah – barcha go'zal ismlarning boshi. Allah o'zidan boshqa ibodatga loyiq bo'lmagan iloh. Uning avvali va oxiri yo'q, abadiy tirik turguvchidir. U har narsaga qodir, mehribon va rahmlidir.⁶⁴ Allahning mehribon va rahmli ekanligi sababli shoir Allahdan gunohlarini kechirishini so'rab tavba qil deb diliga buyuradi. Adabiyotda inson umri bosqichlarini yil fallariga qiyoslash ko'pgina ijodkorlar ijodida uchraydi va an'ana darajasiga ko'tarilgan. Usmon Azim ham shu an'anadan ushbu she'rda unumli foydalangan. Shu bilan bir qatorda ijodkorning betakror falsafiylik yaratish uslubini ham sezmaslik mumkin emas. Xazonrez fasl bo'lgan kuzni shoir insonning so'nggi kunlariga qiyos etgani holda tavba qilish kerakligi, xazon fasli o'ziga ham yetganligi va asl haqiqatni – Allahning tiniq parchasini his qilayotganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Endi fasllarim qolmadi manim –
Ufqda eng so'nggi kunduzim ado.
- Qishing qayda qoldi? – bo'zlaysiz...

Jonim!

Bilmaysiz,

Uch fasl berganin Olloh.⁶⁵

"Hali siz yo'qsizu " deb boshlanuvchi ushbu she'rda ham " Olloh" so'zi teonim bo'lib kelgan. Ushbu she'rda ijodkor o'z umri davrlarini yan bir bor yil fasllariga qiyoslaydi.

⁶³ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 131-бет

⁶⁴ Мукаддас ойлар ва мустажоб дуолар / таржимон ва мусанниф Д.Сарварова. - Тошкент: 2018. 460-бет

⁶⁵ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 263-бет

Bahorda, yozda, kuzda insonlar mehnatdan tinmaydilar, qishda esa dam olishadilar. Shoir esa Olloh unga faqat shu uch faslni ya'ni mehnat qilishi kerakligini ijod qilishdan to'xtamasligini umrining bahorida ham yozida ham kuzida ham og'rinmasligini va dam olishi kerak bo'lgan qish faslini yo'q ekanligini yuragiga, o'z joniga uqtirmoqda go'yoki.

Hamma o'yim oqdir, bor baxtim – qaro,

Faqat ishqim pokdir, faqat til – gado.

Yo Olloh! Ishqingning umidi aro,

Oyoqqa ilashgan loyday sarsonman.⁶⁶

“Bir nafasim – bahor, bittasi kuzdir” deb boshlanuvchi she'rdan olingan ushbu parchada ham Olloh so'zi teonim bo'lib kelgan. Shoir ushbu she'ri orqali faqat Ollohgga bo'lgan ishqining pokligi, Yaratganning bandasiga bo'lgan ishq umidi aro oyoqqa ilashgan qaro loyday uyoqdan buyoqa sarsonligi aytmoqda. Va Olloh ishqidan umidvorligini ta'kidlamogda. Shuningdek shoir “Men titradim”, “Isyon etmoqda”, “Meni buncha titratdi”, “Kuzda yaqin kelar zaminga Olloh”, “Boysunga ham kuzak kelgandir”, “Umrin karvoni” kabi qator she'rlarida ham Olloh so'zi teonim bo'lib kelgan.

“Men ko'nglimni gul kabi uzdim”, “Na bulut, na tuman...Qorong'u – ipak”, “Sening osmoniga yetmadi bo'yim”, “Boqib osmon moviyiligiga” she'rlarida “Tangri” so'zi teonim bo'lib kelganini guvohi bo'ldik.

Bu dunyoda jami g'ururi

Qalbu aqling, qo'ling koridir.

Sen tashvishga tushma surunib-

Kim yashasa har on urinib,

Xudovandning qutlug' yoridir.⁶⁷

Yuqorida keltirilgan she'riy parcha “Intilganga tole yor” maqoliga hamohangdir. Shoir ushbu she'r orqali hayotda ba'zi sabablarga ko'ra qoqilish hodisasi insonni tashvishga tushurmasligi, chunki urunib, doimo harakatda yashagan insonga Allohning o'zi madadkor e'kanligini ta'kidlamogda. Shu bilan bir qatorda ushbu va boshqa bir qator she'rlarida biz Usmon Azim ijodidagi hech kimda uchramaydigan o'ziga xos ajoyib uslubga guvoh bo'lamiz. Ya'ni shoirning asarlarida uchraydigan “Xudovand” so'zini boshqa hech kimda uchratmaymiz. Ijodkor bir necha o'rinlarda ushbu teonimdan samarali foydalangan.

⁶⁶ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 161-бет

⁶⁷ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 325-бет

Shuningdek Usmon Azimning bir qator she'rlarida "Jannat", "do'zax", "farishta", "shayton", "arvoh", "arosat", "qiyomat", "oxirat" kabi so'zlar mavjud bo'lib, ular ham teonimning yorqin ifodasi hisoblanadi.

Agionimlardan – Payg'ambarlar, diniy martabaga ega bo'lgan shaxslar ismlaridan ham samarali foydalangan

Dunyo bugun sarg'aygan chorbog' -

Yov bo'shliqlar tегarasida –

U o'zidan ketmoqda yiroq,

U chidamning chegarasida.

Payg'ambarday turibdi bosiq,

To'pig'ini tutib alanga –

Men bir bargning xasratini yozib

Dovrug' solsam bo'lar olamga.⁶⁸

"Bebaxtlikda bu kuzak baxtli" deb boshlanuvchi ushbu ajoyib she'rda shoir "Payg'ambar" so'zi orqali agionimni hosil qilgan. Bu misralarda o'ziga xos falsafiylik ham mavjud: bizga ma'lumki payg'ambarlar sabr- toqat, chidam, bardosh borasida ham ummatlariga go'zal o'rnak bo'lishgan. Sarg'aygan chorbog'ga aylangan dunyoning chidam va sabrini har turli dardlarga sabr qilib chidagan - Sabr timsoli – Ayyub payg'ambarga qiyoslamoda go'yoki. Dunyoning to'pig'ini tutayotgan alanggaga ham chidab payg'ambardek bosiq turganligini takidlamoda. Go'yoki alanga – olovga tashlangan Ibrohim payg'ambardek!

Qayriladi g'ayrkor tig'lar,

Buziladi g'anim matlabi...

Kuz ko'ksimga yuragni mixlar-

Yurak- Iso payg'ambar kabi.⁶⁹

"Kuzgi bog'" she'rlaridan olingan ushbu misralarda naqadar go'zal tashbeh mavjud: g'animlari tomonidan xochga mixlangan Iso payg'ambar kabi kuz ham lirik qahramonning ko'ksiga yurakni mixlaydi. Ushbu parchada ko'rib turganimizdek, "Iso payg'ambar" so'zi agionim bo'lib kelgan.

Bu go'zal bog' ichra bahor dengizi,

Mavjlari- yam- yashil, ufqi- qirmizi,

⁶⁸ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 130-бет

⁶⁹ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 111-бет

Bahor- payg‘ambardir, sen ham - Termiziy-

Bir hadis topsang gar niholga yashir.⁷⁰

“Bahorgi bog‘” nomli she‘rlar turkumidan olingan ushbu misrada esa “payg‘ambar” va “Termiziy” so‘zlari agionim hisoblanadi.

Nekronimlar ya‘ni Muqaddas hisoblanuvchi qadamjolar nomlari ham Usmon Azim ijodining ko‘pgina o‘rinlarida go‘zal tashbehlar va ohorli obrazlarda nomoyon bo‘ladi.

Qibla qolib, bosh oqqan tomon

Tavba- chun tiz cho‘kib gangib...

Derazangning rasmini hamon

O‘chirmaydi devordan tangrim.⁷¹

Biz musulmonlarning Allohga ibodat qilib yuzlanadigan Muqaddas Kaba joylashgan tomon – Qibla deb nomlanadi. “Sevgi” she‘ridagi ushbu parchada qo‘llangan “Qibla” so‘zi ham shoir ijodidagi nekronimning yorqin namunasidir.

Hayot mazmuni va inson tuyg‘ularini teran ifoda etgan Usmon Azim she‘riyatida teonim, nekronim va agionimlarga o‘zgacha falsafiy va yanggi nuqtai nazardan yondashgan. Diniy semalardan individual uslubda foydalangan holda go‘zal tashbehlar yaratgan. Umuman olganda, Usmon Azim she‘rlarining ajoyib ohangdorigini yanada boyitish va ma‘no bo‘yoqdorligini tiniqlashtirish uchun xizmat qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт – матваа уйи, 2018. – 456 б.

2. Мукаддас ойлар ва мустажав дуолар / таржимон ва мусанниф Д.Сарварова. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2018. – 504 б.

3. Qayumov A. She‘riyat jilolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996 – 128 b.

4. Davronova M. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida individual uslub poetikasi. (U.Azim, I.Mirzo, Faxriyor va A.Qutbiddin she‘riyati misolida). Filol .fan. dok. diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 66 b.

⁷⁰ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 85-бет

⁷¹ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: 2018. 252-бет